

**HARBIY - KASBIY TAYYORGARLIK: ZAMONAVIY TALABLAR,
TENDENSIYALAR, INNOVATSION YONDASHUVLAR VA
SAMARADORLIKNI OSHIRISH**

Isakov Sanjar Xazratqulovich

*O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
kafedra boshlig‘i o‘rinbosari, p.f.b.f.d (PhD)*

To‘rayev Shovkat Ergashevich

*O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
katta o‘qituvchi*

Военно-профессиональная подготовка: современные требования, тенденции, инновационные подходы и повышение эффективности

Military professional training: modern requirements, trends, innovative approaches and efficiency improvement

Annotatsiya: maqolada harbiy-kasbiy tayorgarlik harbiy xizmatchilarni jangovar vazifalarni bajarishga, jismoniy va ruhiy jihatdan tayyorlashga, jamoaviy rujni yuksaltirishga, zamonaviy harbiy texnologiyalardan foydalanishga va shu bilan birga yuksak axloqiy xizmat qilish prinsiplariga o‘rgatishga qaratilgan muhim jarayonlar, zamonaviy tendensiylarini tahlil qilish, ularning samaradorligini oshirish yo‘llari hamda zamonaviy harbiy xizmatning tez o‘zgaruvchan muhiti harbiy-kasbiy tayyorgarlik tizimlariga yangicha yondashuvlar haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: harbiy-kasbiy tayyorgarlik, zamonaviy talablar, tendensiylar, innovatsion yondashuvlar, samaradorlikni oshirish, xizmat faoliyati, texnologiya, axborot texnologiyalari, psixologik.

Annotatsiya: в статье военно-профессиональная подготовка рассматриваются важные процессы, направленные на подготовку военнослужащих к выполнению боевых задач, физическую и моральную подготовку, повышение командного духа, использование современных военных технологий и в то же время обучение их принципам высоконравственного прохождения службы, анализ современных тенденций, путей повышения их эффективности, а также на то, как быстро меняющаяся среда современной военной службы влияет на системы военно-профессиональной подготовки. упоминаются новые подходы.

Ключевые слова: военно-профессиональная подготовка, современные требования, тенденции, инновационные подходы, повышение эффективности, служебная деятельность, технология, информационные технологии, психология.

Annotation: The article military professional training examines important processes aimed at preparing military personnel for combat missions, physical and moral training, improving team spirit, using modern military technologies and at the same time teaching them the principles of moral service, analyzing current trends, ways to increase their effectiveness, as well as how quickly The changing environment of modern military service affects military training systems. New approaches are mentioned.

Keywords: military professional training, modern requirements, trends, innovative approaches, efficiency improvement, performance, technology, information technology, psychology.

“Qurolli Kuchlarimizni modernizatsiya qilish, xususan, harbiy ta’lim sohasiga zamonaviy bilim, ilg‘or xorijiy tajribalar, axborot kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo‘yicha boshlagan ishlarimizni yangi bosqichga ko‘tarishimiz zarur.

Sh.M.Mirziyoyev

Mamlakatimizning tinchligi va osoyishtaligiga bo‘lgan har qanday tahdidlarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash tizimini ilg‘or xalqaro standartlar asosida takomillashtirish, shuningdek, zamon talablaridan kelib chiqib, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va Qurolli Kuchlarning kadrlar tayyorlash salohiyatini oshirish borasida ustuvor yo‘nalishlari belgilanib, zarur me’yoriy-huquqiy asoslari yaratildi. “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasi”da, “Mamlakat harbiy xavfsizligini ta’minalash va mudofaa salohiyatini mustahkamlash borasidagi qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish, qo‘sishlarning jangovar shayligi va tayyorgarligi hamda o‘quv moddiy-texnik bazasini yanada rivojlantirish, qo‘sishlarning zamonaviy qurol-asлаha, harbiy va maxsus texnika hamda jihozlar bilan ta’minalash”[1,4] kabi ustuvor yo‘nalishlarning belgilanganligi, jamoat xavfsizligini ta’minalash bo‘linmalari bo‘lajak ofitserlarining harbiy-kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishni talab etadi va ushbu sohaga doir tadqiqotlarni o‘tkazish naqadar dolzarb ekanligidan ya’na bir bor dalolat beradi. Demokratik islohotlarning jadal sur’atlarda rivojlanishi bilan bir qatorda huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan jamoat xavfsizligini ta’minalash masalalari kundan kunga dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. Har qanday jamiyatning taraqqiyoti kadrlarning malakasiga bog‘liq. Kasbiy tayyorgarlik esa malakali kadrlarni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu nuqtai nazardan, harbiy-kasbiy tayyorgarlik harbiy xizmatchilarni jangovar vazifalarni bajarishga, jismoniy va ruhiy jihatdan tayyorlashga, jamoaviy ruhni yuksaltirishga, zamonaviy harbiy texnologiyalardan foydalanishga va shu bilan

birga yuksak axloqiy xizmat qilish prinsiplariga o‘rgatishga qaratilgan muhim jarayon desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qurolli Kuchlari Oliy Bosh Qo‘mondoni Sh.M.Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil topganligining 31-yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda so‘zlagan nutqlarida “...harbiy xizmatchilar, ayniqsa, komandirlar tarkibining professional harbiy-kasbiy tayyorgarligini oshirish, milliy armiyamizni yanada rivojlantirishning eng muhim sharti bo‘lib qolmoqda. Bu borada Qurolli Kuchlar Bosh shtabi hamda harbiy okruglar boshqaruv apparatlari ofitserlarini, brigada komandirlari va ularning o‘rinbosarlarini o‘qitish bo‘yicha Qurolli Kuchlar Akademiyasida joriy etilgan yangi tizimning samaradorligini ta’minlash – dolzarb vazifadir” deb ta’kidlagandilar[2].

Aynan bugun, zamonaviy harbiy xizmatning tez o‘zgaruvchan muhiti harbiy-kasbiy tayyorgarlik tizimlariga yangicha zamonaviy talablar, tendensiyalar, innovatsion yondashuvlar va samaradorlikni oshirish masalalarini qo‘ymoqda.

Zamonaviy talablar. Harbiy xizmatchilarga qo‘yiladigan zamonaviy talablar o‘tmishdagi talablardan ancha farq qiladi va ularning xizmatining muvaffaqiyati uchun juda muhimdir. Ular jang maydonining o‘zgaruvchan xususiyatlarini, texnologiyaning tez rivojlanishini va global xavfsizlik muhitining murakkabligini hisobga oladi.

Harbiy - kasbiy tayyorgarlikning asosiy talablariga quyidagilarni kiritish mumkin:

Jismoniy va psixik tayyorgarlik. Yuqori darajadagi jismoniy tayyorgarlik - Jang maydonida va og‘ir sharoitlarda samarali harakat qilish qobiliyati, chiziqli va funktsional mashqlar, kuch, tezlik va chiziqlilik.

Psixik chidamlilik - stressga, xavfga va noqulaylikka qarshi turish, o‘zini boshqarish va qayg‘u holatlaridan chiqish qobiliyati.

Psixologik bilim va ko‘nikmalar - Stressni boshqarish, muammolarni hal qilish, jadval va vaqtini boshqarish, jamoa bilan hamkorlik qilish.

Harbiy - kasbiy tayyorgarlikda texnologiya bilan ishlash qobiliyati.

Raqamli savodxonlik - kompyuter, internet, dasturlar va elektron qurilmalarni samarali ishlatish.

Axborot texnologiyalari - aloqa tizimlari, sensorlar, dronlar, jangovar boshqaruv tizimlari va boshqa zamonaviy qurilmalardan foydalanish qobiliyati.

Kiberxavfsizlik – kiberhujumlardan himoyalanish, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va kiberfaoliyatni boshqarish.

Harbiy - kasbiy tayyorgarlikda taktik va strategik fikrlash. Tezkor qaror chiqarish - jang maydonidagi vaziyatni tahlil qilish va tezkor qarorlarni qabul qilish qobiliyati.

Taktik ko‘nikmalar - jang maydonidagi harakatlarni rejalashtirish, jangovar vazifalarni bajarish, jangovar guruhni boshqarish.

Strategik fikrlash: jangovar harakatlarning global va mintaqaviy oqibatlarini tushunish va ularga moslashish.

Harbiy - kasbiy tayyorgarlikda jamoa bilan ishlash. Hamkorlik va o'zaro tuzum - jamoa bilan samarali ish boshqarish, jamoa maqsadlari uchun harakat qilish va jangovar ruhani muhofaza qilish.

Muloqot qilish - aniq, samimiy va professional tarzda muloqot qilish, ma'lumotlarni to'g'ri yetkazish va jamoa ichidagi muloqotni boshqarish.

Liderlik - boshqalarni rag'batlantirish, qayg'uga tushmaslik, jangovar ruxni saqlash va jamoani muvaffaqiyatga erishtirish.

Harbiy - kasbiy tayyorgarlikda xalqaro va madaniy bilimlar. Chet tillar - global muhitda muloqot qilish uchun chet-tillarini bilish (ingliz tili asosan).

Madaniyatlararo tuzum - turli madaniyatlarga hurmat bilan qarash va turli madaniyatli odamlar bilan samarali ishlay olish.

Global xavfsizlik - xalqaro siyosiy va harbiy muhitni tushunish.

Harbiy - kasbiy tayyorgarlikda davomiy ta'lim. O'zini o'zi rivojlantirish - doimiy o'rganish, yangi bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish, professional rivojlanishga intilish.

Texnologik yangiliklarga moslashish - zamonaviy texnologiyalarni o'rganish va ularni jangovar faoliyatda qo'llashga tayyor bo'lish.

Ko'nikmalarni yangilash - davomiy ta'lim orqali jangovar ko'nikmalarni takomillashtirish.

Zamonaviy talablarga javob berish uchun harbiy xizmatchilar o'zlarini doimiy ravishda rivojlantirishlari, yangi texnologiyalarni o'zlashtirishlari va global xavfsizlik muhiti o'zgarishlariga moslashishlari kerak. Bu talablar harbiy xizmatning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun muhimdir.

Bundan tashqari harbiy - kasbiy tayyorgarlik borasida zamonaviy talablar quyidagilarni o'z ichiga oladi: Texnologik rivojlanish - zamonaviy harbiy texnologiyalarning tez rivojlanishi harbiy xizmatchilarni yangi texnologiyalardan foydalanishga o'rgatishni talab qiladi. Bu talabga javoban harbiy kasbiy tayyorgarlik tizimlari yangi texnologik qurilmalar, simulyatorlar va trenajerlardan foydalanishga kirishdi.

Gibrid urushlar - zamonaviy harbiy mojarolar gibrid xarakterga ega bo'lib, harbiy xizmatchilarni turli xil tahdidlarga qarshi kurashishga tayyorlash muhim ahamiyatga ega.

Jamoaviy harakat - zamonaviy harbiy operatsiyalar jamoaviy harakatni talab qiladi. Harbiy kasbiy tayyorgarlik tizimlari jamoa ruhini yuksaltirish, jamoa a'zolari o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash va o'zaro tushunishni oshirishga qaratilgan dasturlarni qo'llashlari kerak.

Psixologik tayyorgarlik - zamonaviy harbiy xizmat jangovar stress va boshqa psixologik ta'sirlarga duch kelish imkonini beradi. Harbiy xizmatchilarni psixologik jihatdan tayyorlash, jangovar stressni boshqarish va psixologik

chidamliligin oshirish muhim ahamiyatga ega. Harbiy xizmatchilarni axloqiy qoidalarga o‘rgatish va yuksak axloqiy prinsiplar asosida xizmat qilishni ta’minlash muhim ahamiyatga ega.

Asosiy tendensiyalar. Harbiy xizmatchi tendensiyalari juda dinamik va doimiy ravishda o‘zgarib turadigan soha hisoblanadi. Zamonaviy dunyoning tez o‘zgarib turuvchi xususiyatlari, texnologik taraqqiyot va global xavfsizlik muhitining murakkabligi harbiy xizmatning rivojlanishiga ta’sir qiladi.

Bugungi kunda harbiy xizmatchilar xizmat faoliyatida bilishi lozim bo‘lgan ba’zi muhim tendensiyalar mavjud bo‘lib, ular quyidagilar.

Raqamli jang - harbiy xizmat sohasida raqamli texnologiyalar keng qo’llanilmoqda, bu esa jang usullarini o‘zgartirmoqda. Dronlar, sensorlar, sun‘iy intellekt va kiberhujumlar harbiy tayyorgarlik va jangovar harakatlarda muhim rol o‘ynamoqda.

Kiberxavfsizlik - kiberhujumlar va kiberurush harbiy xizmatning yangi tahdidlaridan biriga aylanmoqda. Shuning uchun kiberxavfsizlik sohasida mutaxassislarni tayёрлаш va kiberhimoya tizimlarini rivojlantirish muhimdir.

Robotlashtirish - jang maydonida robotlashtirish va avtomatlashtirish ko‘paymoqda. Robotlashtirish harbiy xizmatchilarni xavfli va qiyin vazifalardan himoya qilishga va jang samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Bundan tashqari harbiy xizmatchilar xizmat faoliyatida bilishlari lozim bo‘lgan quyidagi tendensiyalar ham mavjud, ular quyidagilar.

Shaxsiylashtirilgan o‘qitish - Zamonaviy kasbiy tayyorgarlik tizimlarida individual hususiyatlarni hisobga olib, o‘qitish jarayonini shaxsiylashtirishga katta e’tibor beriladi. Bu yo‘nalishda o‘quvchilarning qobiliyatları, tajribalari va qiziqishlarini aniqlash uchun turli xil psixologik testlar, so‘rovnomalar va kuzatishlardan foydalaniladi.

Raqamli texnologiyalardan foydalanish - zamonaviy kasbiy tayyorgarlik tizimlarida raqamli texnologiyalarning qo’llanilishi keng tarqalmoqda. Onlayn o‘qitish platformalari, simulyasiya dasturlari, virtual reallik texnologiyalari va boshqa innovation usullar o‘qitish jarayonini yaxshilashga va o‘quvchilarning o‘qish samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Amaliy tajribaga asoslangan o‘qitish - zamonaviy kasbiy tayyorgarlik tizimlarida o‘qitish jarayonini ish joyidagi amaliy tajribaga asoslangan holda tashkil qilishga katta e’tibor beriladi. Bu usul o‘quvchilarning nazariy bilimini amaliy tajriba bilan birlashtirishga yordam beradi.

Doimiy rivojlanish - zamonaviy jamiyatda tez o‘zgaruvchan iqtisodiy va ijtimoiy muhit kadrlarning doimiy rivojlanishini talab qiladi. Zamonaviy kasbiy tayyorgarlik tizimlarida o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini yangilash uchun turli xil dasturlar va imkoniyatlar taqdim etiladi.

Innovatsion yondashuvlar. Harbiy xizmatchilar faoliyatida innovatsion yondashuvlar jangovar samaradorlikni oshirish, xavfsizlikni ta'minlash, xizmatchilarning hayotini saqlash va jangovar rujni mustahkamlashga qaratilgan yangi fikrlash va amaliyotlarni o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Sh.M.Mirziyoyevning “O'zbekiston ilm-fan, intellektual salohiyat sohasida, zamonaviy kadrlar, yuksak texnologiyalar borasida dunyo miqiyosida raqobatbardosh bo'lishi shart”[3], degan da'vatlari asosida: professional asosdagi armiyani shakllantirish, uning tarkibini yuqori malakali, kasbiy mahorat va jangovar qobiliyatga ega bo'lgan, o'z individual - shaxsiy, ijtimoiy xususiyatlari bilan harbiy kasb talablariga to'iq javob bera oladigan professional kadrlar bilan ta'minlash masalasiga jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

Shu nuqtai nazardan, harbiy xizmatchilar xizmat faoliyatida bilishi lozim bo'lgan quyidagi innovatsion yondashuvlar ham mavjud bo'lib, ular quyidagilar.

Virtual reallik texnologiyalari - virtual reallik texnologiyalari harbiy xizmatchilarni jangovar vaziyatlarga tayyorlash uchun ishlatiladi. Virtual reallik simulyatorlari harbiy xizmatchilarni turli xil jangovar vaziyatlarga duch kelishiga va o'z harakatlarini baholashiga yordam beradi.

Simulyasiya dasturlari - simulyasiya dasturlari harbiy xizmatchilarni turli xil harbiy operatsiyalarni bajarishga o'rgatish uchun ishlatiladi. Simulyasiya dasturlari harbiy xizmatchilarni turli xil tahdidlarga qarshi kurashishga tayyorlashga yordam beradi.

Onlayn o'qitish platformalari: Onlayn o'qitish platformalari harbiy xizmatchilarni turli xil fanlar bo'yicha o'qitishga imkon beradi. Onlayn o'qitish platformalari harbiy xizmatchilarni o'z bilim va ko'nikmalarini yangilashga va zamonaviy texnologiyalardan foydalanishga o'rgatishga yordam beradi.

Psixologik mashg'ulotlar - harbiy xizmatchilarni psixologik jihatdan tayyorlash uchun turli xil psixologik mashg'ulotlar o'tkaziladi. Bu mashg'ulotlar jangovar stressni boshqarish va psixologik chidamliligini oshirishga qaratilgan.

Shaxsiylashtirilgan o'qitish - harbiy xizmatchilarning individual xususiyatlari va qobiliyatlarini hisobga olib, o'qitish jarayonini shaxsiylashtirish muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy harbiy kasbiy tayorgarlik tizimi innovation yondashuvlar va texnologiyalardan foydalanib, harbiy xizmatchilarni jangovar vazifalarni bajarishga tayyorlashi kerak. Virtual reallik, simulyasiya dasturlari, onlayn o'qitish platformalari va psixologik mashg'ulotlar harbiy xizmatchilarning qobiliyatlarini oshirishga va ularni zamonaviy harbiy muhitga tayyorlashga yordam beradi.

Samaradorlikni oshirish yo'llari. Harbiy xizmatchilar kasbiy faoliyatining samaradorligini oshirish - bu ularning jang maydonida va tinchlik davrida

muvaffaqiyatli ishlashi, vazifalarini samarali bajarishlari va xavfsizlikni ta'minlashlari uchun juda muhimdir.

“2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasi”da “Mamlakat harbiy xavfsizligini ta’minlash va mudofaa salohiyatini mustahkamlash borasidagi qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish, qo‘sishnlarning jangovar shayligi va tayyorgarligi hamda o‘quv moddiy-texnik bazasini yanada rivojlantirish, qo‘sishnlarni zamonaviy quroq-aslaha, harbiy va maxsus texnika hamda jihozlar bilan ta’minalash”[1,4] deb nomlangan yettinchi yo‘nalishi doirasida respublikaning konstitutsiyaviy tuzumini, hududiy yaxlitligini himoya qilishga doir chora-tadbirlarni ro‘yobga chiqarishda bo‘lajak ofitserlar harbiy-kasbiy tayyorgarligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu sohada bir qator innovatsion yondashuvlar va amaliy tadbirlar qo’llanilishi mumkin. Jumladan: Ochiqlik va shaffoflik - kasbiy tayyorgarlik tizimida o‘qitish jarayonini yaxshilash va samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Motivatsiya va o‘qishga bo‘lgan qiziqishni oshirish – ta’lim oluvchilarining motivatsiyasi va o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshirish uchun turli xil metodlar va usullar qo’llaniladi.

Jamoaviy o‘qitish - jamoaviy o‘qitish o‘quvchilarining o‘zaro hamkorlik qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga va o‘qitish jarayonini yaxshilashga yordam beradi.

O‘qituvchilarining malakasini oshirish - kasbiy tayyorgarlik tizimida o‘qituvchilarining malakasini oshirish muhim ahamiyatga ega.

Kasbiy tayyorgarlik tizimining zamonaviy tendensiyalari o‘qitish jarayonini yaxshilash va uning samaradorligini oshirishga qaratilgan. Raqamli texnologiyalardan foydalanish, amaliy tajribaga asoslangan o‘qitish, shaxsiylashtirilgan o‘qitish, doimiy rivojlanish - bular kasbiy tayyorgarlik tizimini zamonaviylashtirishga yordam beradi[5].

Yakuniy xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, Qurolli Kuchlarimiz saflarida xizmat qilayotgan har bir harbiy xizmatchi o‘z ishining mohir ustasi bo‘lmog‘i zarur. Buning uchun esa, mavjud o‘qotar qurollar xususiyatlarini o‘rganish bilan cheklanib qolmasdan, ilg‘or xorijiy davlatlarda ishlab chiqarilayotgan zamonaviy o‘qotar qurollarning xususiyatlari va ularidan foydalanish tartibini bosqichma-bosqich o‘rganish lozim. Harbiy-kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirishni zamon talablari darajasida ta’minalash, o‘quv jarayonida zamonaviy ta’lim texnologiyalarini rivojlantirish, shuningdek, harbiy-kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirishda o‘quv fanlarining xususiyatlari, imkoniyatlariga ko‘ra innovatsion pedagogik texnologiyalar, interfaol usullar hamda axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan samarali foydalanish davr talabidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 – 2026 - yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni. 28.01.2022-yil.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-fevral kunidagi 5349-sonli “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni / O‘.R. QHT, 2018, 0792-son. lex.uz.
3. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qa’tiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz / Sh.M.Mirziyoyev. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. - 592 b.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 – 2026 - yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni. 28.01.2022-yil.
5. <https://tpu.ru/military-training>.